

МСЧ «AUDIT-KIM» АТ
Тошкент ш., Шахрисабз куч., 16а
Тел: 90 614 98 34, 90 324 48 95
Эл почта: Larisa_kim56@mail.ru
Р/с: 20208000900521622001
в ОАКБ «Ипак-Йули»
МФО: 01067
СТИР: 202021845, ОКЭД: 69202

AUDIT
K I M
АУДИТОРЛИК
ТАШКИЛОТИ

АО ООО «AUDIT-KIM»
г.Ташкент, ул. Шахрисабзская, 16а
Тел: 90 614 98 34, 90 324 48 95
Эл почта: Larisa_kim56@mail.ru
Р/с: 20208000900521622001
в Чил ф-ле АКБ «Ипак-Йули»
МФО: 01067
ИНН: 202021845, ОКЭД: 69202

MUSTAQIL AUDITORLAR XULOSASI

“G’IJDUVON PAXTA TOZALASH” Aksiyadorlik jamiyati ta'sischilari va rahbariyatiga

Fikr

Biz “G’ijduvon paxta tozalash” aksiyadorlik jamiyatining (keyingi o‘rinlarda “Jamiyat” deb yuritiladi) 2022 yil 31 dekabr holatidagi moliyaviy ahvoli to‘g‘risidagi hisoboti, ko‘rsatilgan sanada tugagan yil mobaynidagi foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisoboti, xususi kapitaldagi o‘zgarishlar to‘g‘risidagi hisoboti va pul oqimlari harakati to‘g‘risidagi hisoboti, shuningdek moliyaviy hisobotga izohlar, shu jumladan hisob siyosatining asosiy holatlari qisqacha sharxini o‘z ichiga olgan moliyaviy hisobotlar auditini o‘tkazdik.

Bizning fikrimizcha, ilova qilinayotgan moliyaviy hisobotlar Jamiyatning 2022 yil 31 dekabr holatiga bo‘lgan moliyaviy holatini, ko‘rsatilgan sanada tugagan yil mobaynida uning moliyaviy natijalarini va pul oqimlari harakatini barcha muhim jihatlarda O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standartlariga muvofiq haqqoniy aks ettirgan.

Fikr bildirish uchun asos

Biz auditni Auditning Xalqaro Standartlariga (AXS) muvofiq olib bordik. Ushbu standartlarga muvofiq bizning majburiyatlarimiz hisobotimizning “Moliyaviy hisobotlar auditi bo‘yicha auditorning javobgarligi” bo‘limida batafsil ko‘rsatib berilgan. Biz buxgalterlar axloqining Xalqaro axloq standartlari Kengashining (BXASK) axloq kodeksi va O‘zbekiston Respublikasida moliyaviy hisobotlar auditiga nisbatan qo‘llaniladigan axloqiy talablarga muvofiq Jamiyatga nisbatan mustaqilmiz va biz tomonimizdan bu talablarga va BXASK kodeksiga muvofiq boshqa axloqiy majburiyatlar bajarildi. Bizning fikrimizcha, biz olgan auditorlik dalillari fikr bildirishimizga asos bo‘lishi uchun yetarli va o‘rinlidir.

Moliyaviy hisobotlar bo‘yicha jamiyat rahbariyatining javobgarligi

Jamiyat rahbariyati moliyaviy hisobotni tayyorlash va to‘g‘ri taqdim etish hamda g‘arazli hatti-harakatlar yoki xatolik tufayli jiddiy buzib ko‘rsatishlardan xoli moliyaviy hisobotlarni tayyorlash uchun zarur deb hisoblangan rahbariyat tomonidan qabul qilingan ichki nazorat tizimi uchun javobgardir.

Moliyaviy hisobotni tayyorlashda rahbariyat korxonasi o‘z faoliyatini uzluksiz davom ettira olishga qodirligini baholash, faoliyat uzluksizligi bilan bog‘liq bo‘lgan axborotlarni ochiq va rahbariyat tomonidan korxonani tugatish, faoliyatni to‘xtatish rejasi mavjud hollarni, yoxud rahbariyatda tugatish yoki faoliyatini to‘xtatishdan boshqa real muqobil variant mavjud bo‘lmagan hollarni istisno qilganda, faoliyat uzluksizligi taxminiga ko‘ra hisobotlarni tayyorlash uchun javobgardir.

Korporativ boshqaruv uchun mas‘ul shaxslar korxonaning moliyaviy hisobotlarini tayyorlashni nazorat qilish uchun javobgardir.

Mustafaev B. I.



Bobomurodov G. R.



Auditorlarning javobgarligi

Bizning maqsadimiz moliyaviy hisobotda g'arazli hatti-harakatlar yoki xato tufayli vujudga keladigan jiddiy noto'g'ri ma'lumotlar (buzib ko'rsatishlar) yo'qligiga ishonch hosil qilish va bizning fikrimizni o'z ichiga olgan auditorlik xulosasini taqdim etishdir. Oqilona ishonch yuqori darajadagi ishonchdir, lekin AXS ga muvofiq o'tkazilgan audit har doim ham jiddiy noto'g'ri ma'lumot (buzib ko'rsatish) mavjud bo'lganda uni aniqlashga kafolat berolmaydi.

Noto'g'ri ma'lumotlar g'arazli hatti-harakat yoki xatolik natijasida yuzaga kelishi mumkin va agar ular alohida-alohida yoki umumiy holda foydalanuvchilarning ushbu moliyaviy hisobotlar yuzasidan qabul qilinadigan qarorlariga ta'sir etishi mumkin bo'lsa, ahamiyatli hisoblanadi.

Xalqaro Audit Standartlariga muvofiq o'tkaziladigan audit doirasida biz professional mulohaza yuritimiz va audit jarayonida professional skeptisizmni saqlaymiz. Bundan tashqari, biz quyidagilarni bajaramiz:

-g'arazli hatti-harakatlar yoki xato tufayli moliyaviy hisobotning jiddiy noto'g'ri (buzib) ko'rsatilishi riski (tavakkalchiligi)ni aniqlash va baholash; ushbu risklarga javoban audit proseduralarini ishlab chiqish va amalga oshirish; fikrimizga asos bo'lishi uchun yetarli va ishonarli auditorlik dalillarini olish. G'arazli hatti-harakatlar natijasida yo'l qo'yilgan jiddiy noto'g'ri ma'lumotni aniqlanmaslik xavfi xato tufayli yuzaga kelgan jiddiy noto'g'ri ma'lumotni aniqlanmaslik xavfidan yuqoriroqdir, chunki g'arazli hatti-harakatlar til birlashtirish, qalbakilashtirish, ataylab tushirib qoldirish, noto'g'ri ma'lumot taqdim etish yoki ichki nazoratni chetlab o'tishni o'z ichiga olishi mumkin;

-tashkilot ichki nazorat tizimining operativ samaradorligi to'g'risida fikr bildirish uchun emas, balki auditorlik proseduralarini ishlab chiqish maqsadida, audit uchun ahamiyatli bo'lgan, ichki nazorat tizimi to'g'risida tushunchaga ega bo'lish;

-qo'llanilgan hisob siyosatining o'rinaliligini hamda rahbariyat tomonidan tayyorlangan buxgalterlik baholashlarning asoslilikini va ma'lumotlarning tegishli tartibda ochiqqlanishini baholash;

-rahbariyat tomonidan faoliyatning uzluksizligi haqidagi farazni qo'llashning maqsadga muvofiqqligi va olingan auditorlik dalillari asosida tashkilot faoliyatini uzluksiz davom ettirish qobiliyatiga jiddiy shubha tug'dirishi mumkin bo'lgan voqealar yoki sharoitlar bilan bog'liq jiddiy noaniqlik mavjudligi to'g'risida xulosa chiqarish. Agar biz jiddiy noaniqlik mavjud degan xulosaga kelsak, biz auditorlik hisobotida moliyaviy hisobotdagi ushbu ma'lumotlarni tegishli tartibda ochiqqlashga e'tiborni qaratishimiz yoki, ma'lumotlar noto'g'ri ochiqqlangan bo'lsa, fikrimizni modifikasiyalashimiz (o'zgartirishimiz) lozim. Bizning xulosalarimiz auditorlik xulosasi chiqarilgunga qadar olingan auditorlik dalillariga asoslanadi. Biroq, kelgusi voqea-hodisalar yoki sharoitlar tashkilot faoliyatini uzluksiz davom ettirish qobiliyatini yo'qotishiga olib kelishi mumkin.

Biz audit jarayonida korporativ boshqaruv vakolatiga ega bo'lgan shaxslar bilan o'zaro hamkorlik qilamiz, ularning e'tiboriga auditning rejalashtirilgan hajmi va muddatlari, shuningdek, audit natijalari bo'yicha muhim kuzatuvlar, shu jumladan,

audit jarayonida aniqlangan ichki nazorat tizimidagi jiddiy kamchiliklar to'g'risidagi ma'lumotlarni yetkazamiz.

Auditor


«AUDIT- KIM» MChJ AT

Direktor – auditor

Toshkent, O'zbekiston

24 mart 2023 yil

«AUDIT- KIM» MChJ AT 2021 yil 03 iyunda vakolatli organ reestriga kiritilgan.



Mustafaev B. I.

Bobomurodov G. R.